



## VII ASRDAN XIV ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA O'RTA OSIYODA TARBIYA, MAKTAB VA PEDOGOGIK FIKRLAR

*Yosinova Odina*

*-UMFT universiteti pedagogika yo'nalishi s550-guruh talbasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada VII asr boshlaridan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktablar va pedagogik fikrlarning rivojlanishiga oid asosiy jihatlar keltirilgan. Maqolada Islom dini va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri, maktablarda ta'lim tarbiya, Hadis ilmining paydo bo'lishi hamda Qur'on va boshqa diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z boradi. O'rta Osiyo xalqlari Islomni qabul qilish jarayonida o'z madaniyati va dinini saqlab qolishga harakat qilgan. Islom dini ta'limotlari, Qur'on va Hadislarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni hamda madaniyat merosi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, madaniy meros, yozuv, me'moriy yodgorliklar, Qur'on, Haftiyak, Chorkitob

### **Kirish**

VII asr boshlarida, Islom dinining paydo bo'lishi bilan, O'rta Osiyo va uning atrofidagi mintaqalarda keng miqyosda madaniy va diniy o'zgarishlar boshlandi. Islom dini o'zining insonparvarlik g'oyalari va axloqiy qadriyatlari bilan nafaqat Arabiston yarim orolida, balki butun dunyoda katta ta'sir ko'rsatdi. Islomning tarixi va tarbiyaviy ta'siri nafaqat diniy tushunchalar, balki madaniyat, ilm-fan, va ta'lim sohalarini ham o'z ichiga olgan. O'rta Osiyo, ayniqsa Movarounnahr, Islomning o'ziga xos ta'siriga uchragan hududlardan biri bo'lib, bu yerda Islom dini keng tarqaldi va shu bilan birga, ta'lim va tarbiya tizimi ham yangi shakllarga o'tdi.

Islom dinining tarbiya va ta'lim tizimiga bo'lgan ta'siri juda muhim ahamiyatga ega. Qur'on va Hadislarning tarbiyaviy ta'siri, nafaqat musulmonlar, balki boshqa xalqlar o'rtasida ham bilim va ma'naviyatning rivojlanishiga katta yordam berdi. Islom ta'limotida ilmga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, bilim olish va tarbiya olishga bo'lgan qarashlar asrlar davomida shakllandi. Arab xalifaligining



O'rta Osiyoni zabt etishi va bu hududda Islom dinini qabul qilish jarayoni, o'z navbatida, o'sha davrdagi ta'lim tizimining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Islom o'z ta'limotida har bir insonni o'z ma'naviy kamolotiga erishishga undaydi va uning eng asosiy qadriyatlari ichida bilim olish, adolat, mehr-oqibat va tinchlikni saqlash alohida o'rin tutadi.

O'rta Osiyoda Islomning kirib kelishi, shuningdek, maktab va madrasalarda ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirishga olib keldi. Diniy bilimlar, shariat va tafsir, arab tili o'qitilishi boshlandi. Bu davrda, ayniqsa, o'g'il bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatlari kengaydi. Islom dini o'zining diniy va axloqiy ta'limoti orqali nafaqat ilmni, balki insonning ruhiy pokligini ham muhim deb bilgan. Qur'on va Hadislarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, bu o'zgarishlarning asosi sifatida qaraladi.

Islom madaniyati va ta'limi davomida, o'quvchilar faqat diniy bilimlarni emas, balki dunyoviy bilimlarni ham olishgan. Madrasalar va maktablarda o'qitiladigan darsliklar, masalan, Xaftiyak va Chorkitob, ilm olish jarayonini yanada rivojlantirdi. Bu o'zgarishlar nafaqat ta'lim tizimini, balki o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasini ham shakllantirdi. Shunday qilib, O'rta Osiyo xalqlarining Islomni qabul qilishi, ularda yangi ta'lim va tarbiya tizimining paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Maqolada, shu davrdagi maktablar, madrasalar va ularning ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Islom dini ta'limotining tarbiyaviy ahamiyati va uning O'rta Osiyo xalqlarining ilmiy va madaniy rivojlanishidagi roli keng yoritiladi. Bu jarayonlar nafaqat diniy, balki ilmiy, axloqiy va ijtimoiy yuksalishlarga ham olib keldi. Maqola Islom ta'limotining rivojlanishiga, madrasalardagi o'quv dasturlariga, Qur'on va Hadislarning ilmiy tafsiri va o'qitilishiga alohida e'tibor qaratadi.

### **Asosiy qism**

VII asr boshlarida Islom g'oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, boshqa davlatlarni zabt etishni boshladi. VII asr o'rtalaridan boshlab arablar Movarounnahrda ham hujum qilishni boshlashdi. VIII asrning o'rtalariga kelib Movarounnahrni to'la zabt etishga erishdilar. Arablar bosib olingan yerlarda Islom



dinini qabul qilishga majbur etildi. Movarounnahr xalqining Islom dinini qabul qilishi qiyin kechgan. Movarounnahrda islom dini kirib kelguniga qadar, u yerdagi xalqlar ko'p sonli xudolarga, quyoshga, o'zlari muqaddas deb bilgan narsalarga sig'inishar edi.

Arab xalifaligi bosib olgan yerlarida istelochilik siyosatini olib borar ekanlar. Qaram bo'lgan xalqlar ustidan madaniy ustunlikka erishishga harakat qildilar. Chunki arab xalqi VII asr boshlarida o'ziga xos madaniyati va adabiy tiliga ega bo'lib, notiqlik san'ati hamda she'riyatni yuksak darajada qadrlar edilar.

Arab xalifaligi davrida ijtimoiy hayot, ilm – fan va madaniyat yanada rivojlandi. Bu davrlarda qadimgi yunon va rim madaniy merosi negizida bir qator fanlar yangi tushuncha va bilimlar bilan boydii. Ular tomonidan yaratilgan barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Arablar bosib olgan ulkan yerlarida xalifalik davlatini barpo etishlari natijasida geografiya fanining geografiya fanining bir qadr takomillashishiga hissalrini qo'shdilar. Bu davrda xalifalikning mulkini aks ettiruvchi dastlabki xaritalar yaratilgan. Xaritalar yordamida Janubiy Ispaniyadan tortib Markaziy Osiyo hamda Hind daryosigacha bo'lgan xalifalik yerlari ,ularning geografik o'rni,iqlimi tabiiy boyliklari haqida ma'lumot olish mumkun edi.

Islom dini Arabiston yarim orolida uning ko'p asrlik tarixi negizida shakllangan. Islom ta'limoti o'zining insonparvar g'oyalari va ularni insonlar ongida chuqur singdira olishi tufayli 14 asrdan buyon borliqni ong yordamida mafkuraviy tarzda idrok etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda.

Arab xalifaligi bosib olingan yerlarida asosiy til etib -arab tili deb e'tirof etildi. Islom dinining muqaddas kitobi bo'lmush Qur'onni boshqa tillarga tarjima qilish taqiqlab qo'yildi. Shu sababli maktablarda fan sifatida arab tili o'rgatila boshladi. Maktablar va madrasalarda ta'lim – tarbiya ishlari, shariat yuzasidan olib borilgan bo'lib bu yerlarda faqat o'g'il bolalar bilim olish huquqiga ega edilar. O'quv maskanlarida diniy hamda dunyoviy bilim olishgan. Maktablarga, madrasalarga ilm olish uchun ota onalar farzandlarini 6-7 hatto 5 yoshlaridan berishgan. Movorounnahrda arab bo'lmagan bolalarga 'Xaftiyak' VIII asrda tuzilgan bo'lib, 'Qur'on' suralaridan yettidan biri bo'lib, tanlab olingan darsliklardan biri bo'lgan. X-





XII asrda 'CHorkitob' o'qitila boshladi. X asrda madrasalar ham paydo bo'la boshladi. 609-610 -yillarda Muhammad S.A.V payg'ambar sifatida yagona Allohga ishonish e'tiqod g'oyasini targ'ib qilishni boshladilar.

### **Islom dinining eng muqaddas kitobi bu- Qur'ondir.**

Qur'on-dunyo madaniyatining ulkan boyligi hisoblanib, 114 ta suradan iboratdir. Qur'oni Karim insonlarni tinch totuv yashash, birodarlik, tenglik, saxiylik va bir biriga mehr muhabbat ulashishga undaydi. Sura va oyatlarda keltirib o'tilgan musulmon olami, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarning madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga oid qarashlar axloqiy me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qur'onda ilmni ishonchli yo'llar bilan isbotlash, taqlid qilishga yo'l qo'ymaslik masalalari ham talqin qilingan. Qur'onda yaxshi fazilatlarga ega kishilar bilan hamsuhbat bo'lish, inson kamolotiga erishuvini ta'minlovchi omillardan biri ekanligi. Insonning ma'naviy pok bo'lish, havoyi nafsga berilmaslik aqliy, hamda jismoniy xislatlarni shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, komil insonni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Islom dini ta'limoti asoslarini yorituvchi Qur'oni Karimdan keying o'rindagi asosiy manba hadis hisoblanadi. Hadislarni to'plash asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Muhammad alayhissalomning ibratli ishlari, e'tiqod, pand-nasihatlarining nomi bilan bog'liq hadislarda mujassamlangan. Eng sahih hadislar to'plami – 'Al jome' as-sahih' kitobi hisoblanadi.

Hadislar dastlab yozib borilmagan. Sahobalar ularni yodlab borganlar, jumladan hazrati Abu Hurayra ana shunday kishilardan bo'lganlar. Hadislarni to'plash xususidagi farmon xalifa Umar ibn Abdulaziz tomonidan berilgan. VIII-IX asrlar hadis ilmining rivojlanishda 'oltin davr' hisoblanadi. Hadislarning haqiqiy, ishonarli, ya'ni sahihlarini saqlab qolish maqsadida ular tekshirilib, asl holiga keltirib, yozib yigila boshlangan. Ana shu tarzda hadis ilmi rivojlana boshlagan. Islom olamida 6 ta ishonchli hadislar to'plami bor. Ularning mualliflari quyidagilar; 1. Al Buxoriy 2. Imom Muslim al-Hajjoj 3. At -Termiziy 4. Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy 5. Imom Ahmad an- Nasoiy 6. Yazid ibn Mojja.

**Xulosa**

VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktablar va pedagogik fikrlar keng rivojlandi. Islom dini ta'limoti va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri muhim o'rin tutadi. Arab xalifaligi davrida O'rta Osiyo xalqlari Islomni qabul qilish jarayonida o'z madaniyati va an'alarini saqlab qolishga harakat qilgan. Qur'on va Hadislar inson kamoloti, axloqiy me'yorlar va ilm-fan rivojlanishida muhim manbalar bo'lib xizmat qilgan. Madrasalar va maktablar diniy hamda dunyoviy bilimlarni tarbiyaviy jarayonlarga tatbiq etishda alohida o'ringa ega bo'lgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Oilalarда фарзанд тарбиясига рухий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Хайдаров S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.



8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12;